

## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONAVA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- avgust holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratishva tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

15 659  
123,2 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

14 536  
123,3 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)

2 014  
111,3 %

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.



## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

9 594



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

346



Oilaviy korxonona

124



Unitar korxonona

3 235



Xususiy korxonona

25



Aksiyadorlik jamiyati

252



Boshqa korxonalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik



Xususiy korxonona  
birlik




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat-aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi;


–aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-iyul oylarida, birlikda)






## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-iyul oylarida 2 014 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar– 1 674 ta, xususiy korxonalar– 120 ta, oilaviy korxonalar– 142 ta, muassasalar– 15 tava boshqalar– 63 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatigako'ra 346 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 187 taga yoki 217,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 290 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142 taga yoki 195,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 142 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78 taga yoki 221,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 9 594 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 667 taga yoki 38,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 969 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 488 taga yoki 38,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 674 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 216 taga yoki 14,8 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.





## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 183 tani tashkil etib, ulardan 176 tasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 40 taga yoki 128,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>64</b>	<b>75</b>	<b>101</b>	<b>138</b>	<b>176</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	3	8	6	15
Sanoat	45	56	69	95	109
Qurilish	1	2	5	7	11
Savdo	8	9	10	19	25
Tashish va saqlash	2	2	4	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	1	2
Axborot va aloqa	-	-	-	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	4	8



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>3 238</b>	<b>4 240</b>	<b>4 888</b>	<b>6 481</b>	<b>8 969</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	469	685	797	957	1 484
Sanoat	511	674	751	1 109	1 381
Qurilish	322	420	564	808	1 063
Savdo	1 090	1 350	1 495	2 006	3 121
Tashish va saqlash	319	439	459	474	480
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	126	183	232	416	552
Axborot va aloqa	61	65	64	69	90
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	24	33	44	77
Boshqa turlar	315	400	493	598	721

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>61</b>	<b>82</b>	<b>148</b>	<b>290</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10	8	19	53
Sanoat	27	38	71	133
Qurilish	-	-	-	1
Savdo	13	15	23	42
Tashish va saqlash	-	-	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	15	24	46
Axborot va aloqa	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	5	5	8	12

## O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	28	19	9
Qozog'iston Respublikasi	18	13	5
Ozarbayjon Respublikasi	3	2	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Tojikiston Respublikasi	8	5	3
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	2	2	-




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>176</b>	<b>117</b>	<b>59</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>42</b>	<b>28</b>	<b>14</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>-</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>3</b>
<b>Boyovut</b>	<b>7</b>	<b>4</b>	<b>3</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Guliston</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>-</b>
<b>Sardoba</b>	<b>8</b>	<b>5</b>	<b>3</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>11</b>	<b>6</b>	<b>5</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>54</b>	<b>44</b>	<b>10</b>
<b>Xovos</b>	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>5</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Guliston shahrida 42 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,9 %), Sirdaryo tumanida 54 ta (30,7 %), Yangiyer shahrida 20 ta (11,4%), Sayxunobod tumanida 11 ta (6,3 %) hamda Mirzaobod tumanida 11 tani (6,3 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatigako'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,7 %), Sirdaryo (14,7 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,1 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (4,6 %), Shirin shahri (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (20,8 %), Sirdaryo (11,4 %), Sayxunobod (8,6 %), Boyovut (9,4 %), Guliston (6,6 %), Mirzaobod (10,6 %), Yangiyer shahri (5,5 %), Oqoltin (9,9 %), Xovos (7,1 %), Sardoba (7,2 %), Shirin shahri (3,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.






## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (24,9 %), Sirdaryo (16,6 %), Sayxunobod (8,5 %), Boyovut (7,2 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (8,9 %), Yangiyer shahri (8,5 %), Oqoltin (5,1 %), Xovos (6,3 %), Sardoba (4,7 %), Shirin shahri (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi


(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yichasoni


(2020-yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (8,5 %), Sirdaryo (9,9 %), Boyovut (4,9 %), Guliston (9,9 %), Mirzaobod (4,2 %), Yangiyer shahri (0,7 %), Oqoltin (52,1 %), Sardoba (0,7 %), Xovos (7,7 %), Shirin shahri (1,5 %) ulushga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan, % da





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**—axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar**—ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the 'UZSTAT' logo. A navigation menu at the top lists various services like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is divided into three sections: 'RASMIY STATISTIKA' (Official Statistics), 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information), and a central interactive form. The form is titled 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' and includes a dropdown menu with options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The form itself has fields for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) and 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from the image), with a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar lists various statistical categories, and the right sidebar lists useful information such as 'Aholini ro'yxatga olish 2022' (2022 Census) and 'Harakatlar strategiyasi' (Migration Strategy).

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:(67)236-86-37**